In the current world market, economic systems are mainly divided into four types: free market economy, command economy, mixed economy, and traditional economy (Mankiw, 2021). These theories, then, developed over years. The free-market economy came from Smith's invisible hand theory (Smith, 1776). In this theory Adam Smith, Scottish philosopher said: "In society even though everyone works for their benefit, they unintentionally benefit the society as well". However, only the power of this theory is not enough for a country's economy to flourish. Otherwise, the role of government to minimize external factors, market failures disappear. If government controls almost everything in a country, then it is called a command economy. In command economy, major decisions are made through a centralized authority. While a planned system is theoretically capable of producing a vibrant economy, real-world examples (such as the former Soviet Union and modern North Korea) have had poor track records as measured by various social and economic indicators **(**Stilwell, 2021**).** John Maynard Keynes was one of the economists who demonstrated how necessary government intervention is to achieve economic stability (Keynes, 1936). Therefore, mixed economy emerged. This system is the combination of the two market systems mentioned above. More specifically, prices are determined by demand and supply, as in a free market, and the government intervenes in the market, but less than in a command economy. For example, in some countries ownership of firms is dominated by the private sector for some industries, while the government owns and controls many other industries, such as energy production, mineral extraction, and transportation **(**Stilwell, 2021**).**

Between 2004 and 2024, each given country's Gross Domestic Product (GDP) and GDP per capita grew differently based on many factors including the economic system a nation applies. The United States adopts a mixed capitalist economic system that combines market freedom with government regulation in strategic sectors (Putral, Firdausi, Ramadhani, 2023). In 2024, the rate of USA's GDP was $28,75 trillion, which had experienced rapid growth, at 135.27% rising from $12,22 trillion in 2004. (World Bank, 2024). In the same year, the GDP per capita of USA was $84,534 which doubled from 2004, $41 (102.6%). According to Germany Trade & Invest (2025), Germany is the largest economy in Europe. It constitutes 24 percent of European GDP and is home to 19 percent of the European Union's (EU) population. The German economy is both highly industrialized and diversified, with an equal focus on services and production. (Germany Trade & Invest 2025). In 2004, GDP of Germany was $2,85 trillion USA dollars, which grew significantly by 64.56% over two decades to reach $4,69 trillion in 2024. Two years ago, GDP per capita of Germany was $56,103 USA dollars which rose by 62.31% from $34,566 USA dollars in 2004. (World Bank, 2024). The economy of the People's Republic of China (PRC) has grown enormously over the last twenty years. With a GDP of

USD 18,74 trillion (2024), it is the second largest economy in the world. According to World Bank data, China's Gross Domestic Product (GDP) increased significantly from approximately $1,98 trillion in 2004 to $18,74 trillion in 2024, reflecting an increase of about 846% over the twenty-year period (World Bank, 2024). Similarly, GDP per capita rose from approximately $1,530 in 2004 to $13,303 in 2024, representing substantial income growth of 769%. (World Bank, 2024).

In this 20 years, China's economy witnessed exceptional growth. After Deng Xiaoping became a preeminent leader of China, he then examined the development experiences of Japan, Singapore, Hong Kong and South Korea when designing reform policies (Naughton, 2007). A country then opened Special Economic Zones (SEZ) to attract investors through low taxes, cheap labor, and state support. Additionally, China's integration to World Trade Organization (WTO) in 2001, reduced market tariffs by making it cheaper to export. (Asian Development Bank, 2017).




Figure 1. Main GDP Composition Pie Chart

The growth of the USA's economy placed it second among these three countries during this period. During this time, the USA operated a mixed economy, focusing on innovation and growth; however, it did not manage to reduce wage inequality in the labor market, which instead increased by 1.3% from 2023 to 2024, reaching 41.8% (World Bank, 2023). Mainly, consumption drives a country's economy. An analysis of US GDP shows that consumption expenditure makes up very large part of its economic activity, accounting for about 68.2%, and investment (17.6%), government spending (17.2%), exports and imports. (U.S. Bureau of Economic Analysis, 2025). Germany is a trade-driven country, 83% fraction of its GDP is trading. In 2024, a country exported $1.6 trillion and imported around $1.4 trillion worth of goods and services. It is very well known for its automotive industry, which includes car firms like BMW, Mercedes-Benz, and Volkswagen. Additionally, over half of the EU population lives within 500 kilometers of Germany's borders. (Germany Trade & Invest, 2025).

In conclusion, after analyzing the three countries' economy and the market system each country applies, economic efficiency differs based on many factors. For instance, a country's location, its culture and traditions, its government, how are goods transported when trading with other countries? What country is specialized? and others. Even tough, Germany's landscape is not big as USA and China's one, its location gives a great opportunity to trade within Europe. Moreover, Germany spends more money on social welfare ever compared to USA and China.

Importantly, even though China witnessed the biggest economic increase, its massive economic growth came to the cost of an increase in CO2 globally. USA, however, represents the biggest GDP, but its inequality rate among its citizens keeps increasing annually. Out of these country’s economic systems, Germany’s mixed economy might be the most efficient one. However, no country may adapt to one’s economic system, therefore every country should keep applying its current economic system while making small adjustments.

References:

1. Smith, A. (1776) An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell.
2. World Bank (2024) World Development Indicators.
3. Germany Trade & Invest (2025) Economic Overview of Germany.
4. Mankiw, N.G. (2021) Principles of Economics.
5. Stilwell, F. (2021) Comparative Economic Systems.
6. Naughton, B. (2007) The Chinese Economy: Transitions and Growth. MIT Press.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Хамроев Акмал Иброхимович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Профессионал таълим тизими муассаларида бюджетдан ташқари маблағларнинг бухгалтерия ҳисобини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари баён қилинган. Бунда давлат ва нодавлат таълими тизими муассасаларининг мулкчилик шаклига кўра таркиби, уларнинг ўзига хос бўлган фарқли жиҳатлари, таълим муассасаларидаги бюджетдан ташқари маблағларининг таркибий тузилиши баён қилинган.

Калит сўзлар: бухгалтерия ҳисоби, бюджетдан ташқари маблағлар, бюджет ҳисоби, давлат ва нодавлат олий таълим муассасалари, таълим хизматлари.

Дунё амалиётида ижтимоий соҳа таркибида таълим ва соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштириш энг асосий йўналишга айланиб бормоқда. Ушбу соҳага тегишли ташкилотларни молиялаштириш давлат бюджети ва бюджетдан ташқари маблағларни шакллантириш орқали амалга оширилади. Таълим ташкилотларида бюджет ва бюджетдан ташқари маблағларнинг мақсадли сарфланишини таъминлаш уларнинг ҳисоби ва назоратини самарали ташкил этиш билан боғлиқ. Шу боисдан, жаҳоннинг аксарият мамлакатларида ҳисоб ва назорат тизимини давлат секторида бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари асосида ривожлантириш юзасидан ислоҳотлар амалга оширилмоқда.

Давлат секторидаги таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари маблағлар ҳисоби ва назоратини такомиллаштиришга қаратилган кўплаб

илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган бўлиб, ушбу изланишларда бюджетдан ташқари маблағларни шакллантиришнинг ўзига хос йўналишлари ва хусусиятлари, бюджетдан ташқари маблағларнинг сарфланишини даврий ҳисобга олиб бориш, молиявий ҳисоботларни шакллантириш ва уларнинг очиқлигини таъминлаш, бюджетдан ташқари маблағларнинг шаклланиши ва сарфланишига оид ҳисоб ва ҳисобот кўрсаткичларининг ишончлилигини таъминлаш масалалари атрофлича очиб берилган. Аммо, таълим тизими муассасаларида бюджетдан ташқари маблағларнинг шаклланиш манбалари ҳамда уларнинг сарфланиш йўналишларини давлат секторида бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартлари асосида такомиллаштириш масалалари етарлича очиб берилмаганлиги, ушбу мавзуда кенг қамровли илмий тадқиқотларни олиб боришни тақозо этади.

Мамлакатимизда профессионал таълими соҳасида изчил ислоҳотлар амалга ошириб келинмоқда, хусусан, профессионал таълими муассасаларини бошқариш тизимига замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш, шаффоф ва самарали жамоатчилик назоратига эришиш, профессионал муассасалари ходимларини моддий рағбатлантиришни ва ижтимоий муҳофаза қилишни яхшилаш, уларнинг самарали ишлаши учун муносиб шароитларни яратиш, зарур ташкилий-ҳуқуқий ва техник-иқтисодий ш а р о и т л а р н и Мамлакатимиздаги амалдаги ҳуқуқий-меъёрий хужжатларга асосан профессионал таълим муассасаси бюджет ташкилоти сифатида қаралиб, асосий мақсади – фойда олишга қаратилмайди. Лекин шунинг билан бир қаторда ўз фаолияти давомида бюджетдан ташқари маблағларни мавжуд моддий техник базаси ва муассасанинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда, таълим хизматлари фаолияти билан топишлари мумкин бўлади.

Ўзбекистонда бугунги кунда амалдаги меъёрий-ҳуқуқий хужжатларга асосан давлат ва нодавлат профессионал таълим муассасаларининг ўзига хос бўлган қуйидаги фарқли жиҳатлари мавжуд. (2-жадвал)

й ў л и б и л а н

2-жадвал

Профессионал таълим муассасаларининг ўзига хос бўлган фарқли жиҳатлари

Фарқли жиҳатлари	**Халқ таълими тизими муассалари**	
	Давлат	**Нодавлат**
Ташкилий-ҳуқуқий шакли	Бюджет ташкилоти тарзида ташкил этилади	Масъулияти чекланган жамият тарзида ташкил этилади
Молиялаштириш тартиби	Давлат бюджети ва бюджетдан ташқари топилган маблағлар асосида молиялаштирилади	Муассаса таъсисчисининг шахсий маблағлари, тадбиркорлик фаолияти асосида топилган
Бухгалтерия ҳисобини юритиш тартиби	Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги йўриқнома асосида ташкил этилади. Бюджет ташкилоти бўйича счётлар режаси асосида юритилади	Хўжалик ҳисоби асосида миллий стандартлар асосида ташкил қилинади.
Счётларни очиш тартиби	Бюджет ҳисобини юритиш учун Марказий банкнинг 27 талик рақамли счетларини очади.	Тижорат банкларида 20 талик рақамли хўжалик ҳисобини юритиш учун миллий, зарур ҳолда хорижий валютадаги счётларни очади.
Ҳисобот тақдим этиш тартиби	Иш ҳақи ва ажратмалари бўйича ойлик, чораклик бухгалтерия баланси, статистика ҳисоботлари,	Йиллик, чораклик солиқ ва статистика ҳисоботлари, иш ҳақи ойлик, йиллик молиявий ҳисоботлар

Манба. Муаллиф томонидан тайёрланган.

Профессионал таълим муассаларида молиявий мустақиллик ривожланган бўлишига қарамасдан, тизими устидан кучли давлат назорати ўрнатилган.

Профессионал таълими тизими муассасаларининг бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобини ташкил этишнинг ҳозирги ҳолати, юритиш тартиби ҳамда бухгалтерия ҳисобини самарали ва сифатли шакллантириш, ҳисоб юритиш жараёнини яхшилаш, маблағлардан мақсадли ва самарали фойдаланиш ҳолатини назорат қилишни такомиллаштириш ҳисоб сиёсатини ишлаб чиқиш лозим.

Профессионал таълим тизими муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобини юритиш амалиётида айрим услубий муаммолар мавжудлилигини кўришимиз мумкин. Хусусан, профессионал таълим тизими муассасаларида бюджетдан ташқари маблағларни шаклланиши билан боғлиқ даромадлар ва тушумларни ҳисобга олишда пул маблағларининг ҳаракатига асосланиши, харажатларни амалга оширишда сметаларнинг харажат моддалари билан бухгалтерия счётлари кўрсаткичларининг ўзаро мувофиқлигини таъминлашнинг мураккаблиги ва шу каби бошқа ҳолатларни келтириш мумкин

профессионал таълим тизими муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар ҳисоби услубиятини такомиллаштириш билан қуйидаги вазифаларни амалга оширишимиз зарур:

профессионал таълим тизими муассасаларида фаолият турига хос маҳсулот (иш, хизмат)лар реализатсияси даромадлар тушуми ҳисобга ҳисоблаш усулини қўллашга қатъий амал қилиш;

профессионал таълим тизими муассасаси раҳбарининг муассаса молиявий-хўжалик фаолиятини бошқариш, ҳисоб ахборот тизимини самарали ишлашини таъминлаш, бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобини тўғри юритилишини таъминлаш учун ҳисоб сиёсатини ишлаб чиқиш;

молиявий хўжалик ҳолати, даромадлар ва харажатлар, бюджет ва бюджетдан ташқари, ҳомийлик ва бошқа маблағлардан фойдаланишда профессионал таълим муассасалари фаолият йўналишидан келиб чиқиб, б е

Фойдаланилган адабиётлар.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.09.2019 йилдаги ПФ-5812-сон Фармони. www.lex.uz

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, Тошкент ш., 2020 йил 23 сентябрь, ЎРҚ-637-сон, https://lex.uz/docs/5013007

Нарбекова Г.Д. «Халқ таълим тизими муассасаларида бюджетдан ташқари маблағларнинг сарфланиш ҳисобини такомиллаштириш» // «Иқтисодиёт ва таълим» илмий журнали 2022-йил 5-сон; 234-240 б.

MUSOBAQA SHAROITIDA YOSH KURASHCHILARNING SEZGI ORGANLARINI RIVOJLANTIRISH

A.Fayziyev, Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Kurash bilan shug‘ullanish katta jismoniy kuchlanishni talab qiladi. Kurash o‘zgarib turadigan shart-sharoitlarga doimiy ravishda javob qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan mashqlar jumlasiga kiradi. Kurash jarayonida vaziyat to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Kurashchi o‘z kuchi va raqibining ojiz va kuchli tomonlarini hisobga olib harakat qilishi, lozim bo‘lganda o‘z harakat rejasini tezlik bilan o‘zgartirishi, ehaqqonlik bilan to‘g‘ri qaror qabul qilishi, raqib harakatlarini hisobga olib o‘z taktikasini amalga oshirishi, raqibni o‘ziga bo‘ysundirishi, faol, topqir hamda tashabbuskor bo‘lishi kerak. Kurashchining harakatlari ongli xarakterga ega. Uning ongi umumiy vazifani bajarishga, kurash jarayonida yuzaga keladigan ayrim taktik vazifalarni bajarishga, sharoitni tahlil qilishga, eng foydali qarorlar qabul qilishga yo‘nalgan bo‘ladi. Ammo harakatlantiruvchi aktlarning ayrim o‘rganilgan harakatlari va kombinatsiyalari avtomatik xarakterga ega bo‘lishi mumkin. I.P. Pavlovning ta’kidlashicha, harakat aktlarining bunday kombinatsiyalari o‘zida miya katta yarim sharlar po‘stlog‘ining tormozlangan markazlarining sintetik faoliyatini aks ettiradi. Kurashdagi harakat ko‘nikmalarining variativligi, ya’ni turlitumanligi ҳаb u ko‘nikmalarning asosiy xususiyatidir. Har bir usul, irg‘itish, aylantirish, yiqitish raqibning kutilmagan harakatlari, yuzaga kelgan vaziyat va sportchining individual xususiyatlariga muvofiq turlicha ko‘rinishda bajariladi. Masalan, V.Ya. Shumilinning fikriga ko‘ra, tik turib orqaga uloqtirish kurashchilarning individual

xususiyatlariga muvofiq tarzda turlicha bajarilishi mumkin. Kurashda raqibni idrok qilish faqatgina ko‘rish sezgisi orqali emas, balki yana harakat-mushak, badan va muvozanat sezgilari vositasida ham amalga oshiriladi. Ko‘rish sezgilari kurashchiga fazoni mo‘ljallashda va raqibning harakatlarini kuzatishda yordam beradi. Badan sezgisi va muvozanat sezgilarining muhim ahamiyati shu bilan izohlanadiki, kurashchilarning faoliyati bir-biriga tegib turgan raqiblarning bevosita qarshiligi ostida o‘tib, bunda mushaklar zo‘riqishi va vestibulyar apparatining kuchli qo‘zg‘alishi ro‘y beradi. Kurash jarayonida mushak zo‘riqishi ko‘p marta o‘zgarib turadi, ayrim mushak guruhlarida kuchsizlanish va kuchlanish tez-tez almashinib turadi, alohida mushaklarning tez va o‘z vaqtida ishga kirishish jarayoni sodir bo‘ladi. Kurashchi o‘z vaqtida mushak kuchlarini maksimum darajada ishlatishni bilishi kerak. Harakat-mushak sezgilari yordamida kurashchi o‘zining mushak kuchini nazorat qilib, bu kuchlarning hajmini farqlaydi, bu esa mana shu kuchlarning aniq taqsimlanishi bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda kurashchi mushak kuchlanishlari davomiyligidagi o‘zgarishlarni his qiladi, mushak kuchlanishlarining uzoq davom qilishi katta miqdorda energiya sarf bo‘lishi bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda sportchi mushak kuchlanishlari davomiyligidagi o‘zgarishlarni his qiladi, mushak kuchlanishlarining uzoq davom qilishi katta miqdorda energiya sarf bo‘lishi bilan bog‘liq. Harakat-mushak sezgilari o‘z harakatlarining tezligi va o‘lchamini, raqib qarshiligi va og‘irligini sezish imkonini beradi. Bu sezgilar harakatlar aniqligi haqida axborot beradi, bu esa istalgan usulni qo‘llashda juda katta ahamiyatga ega. Harakat-mushak sezgilarining o‘ziga xosligi shundaki, bu sezgilar mushaklardagi katta kuchlanish negizida yuzaga keladi. Kurash jarayonida raqibning niyatlarini payqashda nafaqat ko‘rish va harakat-mushak sezgilari, balki yana badan (teri) sezgilari ham muhim ahamiyat kasb etadi, zero kurash ikki kurashchining bevosita bir-biriga tegib turishida o‘tadi. Aynan ular badanlaridagi turli qismlarning bir-biriga bevosita tegib turishiga qarab kurashchi aktiv faoliyat jarayonida raqib holati haqida faqat teri sezgilari orqaligina fikr yuritishi mumkin. Kurashchidagi badan va harakat-mushak sezgilarining yuqori darajada taqsimlanganligi uning o‘z mushaklaridagi va raqib mushaklaridagi kuchlanish va kuchsizlanishni, kuchlanish hajmini, raqib harakatlari xususiyatlarini aniq his qilishda namoyon bo‘ladi. Ko‘rsatib o‘tish joizki, kurashda muvozanat sezgilari katta rol o‘ynaydi, chunki kurash vestibulyar analizatorga katta talablar qo‘yadi. Kurash jarayonida har bir kurashchi raqibini muvozonat holatidan chiqarishga harakat qiladi. Bunda hujum qilayotgan kurashchi ham muvozanatini yo‘qotadi, lekin u muvozanatni saqlashga yoki qayta tiklashga intiladi. Muvozanatni salgina yo‘qotish ham havflidir, chunki raqib bu paytda o‘z usulini qo‘llash uchun foydalanadi. G‘alaba qozonish uchun muvozanatni saqlay olishning o‘zi kifoya qilmaydi, raqibni muvozanatdan chiqarish usullarini ham bilish lozim. Bu usullar turlicha sakrash va itarishlardan iborat. Kurashchi sakrash yoki itarish orqali raqibni muvozanatdan chiqarib hujumni boshlaydi. Yuqoridagilardan shunday shulosa qilishb mumkinki, kurash paytidakurashchidan tang vaziyatlarda ham o‘zini tuta bilish va aqliy tiniqlikni saqlash ko‘nikmalarini talab qilinadi. Salbiy ruhiy holatlarni yengib o‘tishda kurashchiga vatanparvarlik hissi, o‘zining sport jamoasi oldidagi burchi va ma’suliyati, o‘zaro yordam, do‘stlik, o‘rtoqlik hissi kabi ahloqiy- ma’naviy xislatlar

yordam beradi. Bu xislatlar g‘alabaga bo‘lgan qat’iy ishonch manbaidir, ular kurashchiga oldga qo‘ygan maqsadga erishish uchun barcha kuchlarni safarbar qilishida yordam beradi.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ, ВИДЫ И ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ВАЛЮТНОГО РИСКА

Камилова Севара Анваровна
PhD, и.о. доцент Ташкентского государственного экономического университета
Макарова Зулхумар Сейтмурат кызы
Студент Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются экономическая сущность валютного риска, его основные виды и причины возникновения в условиях современной мировой экономики. Раскрыто содержание валютного риска как одной из ключевых форм рыночного риска, оказывающей значительное влияние на финансовую устойчивость хозяйствующих субъектов. Проведена классификация валютных рисков с выделением транзакционного, трансляционного и экономического рисков, а также рассмотрены их особенности проявления. Особое внимание уделено анализу макроэкономических, политико-институциональных, рыночных и микроэкономических факторов, определяющих динамику валютных курсов и формирующих валютный риск. Отдельно рассмотрены методы измерения валютного риска и особенности его проявления в условиях Республики Узбекистан. Сделан вывод о необходимости совершенствования системы управления валютными рисками в условиях интеграции национальной экономики в мировую финансовую систему.

Ключевые слова: валютный риск, обменный курс, финансовые риски, транзакционный риск, трансляционный риск, экономический риск, валютный рынок, волатильность, хеджирование, риск-менеджмент, макроэкономические факторы, долларизация, Узбекистан

В условиях глобализации мировой экономики и активного развития международных финансовых отношений валютный риск становится одним из ключевых факторов, влияющих на устойчивость хозяйствующих субъектов. Колебания обменных курсов, усиление геополитической нестабильности и рост международной торговли формируют среду повышенной неопределённости, в которой финансовые результаты компаний напрямую зависят от динамики валютных рынков.

Особую актуальность данная проблема приобретает для Республики Узбекистан, где в последние годы реализуются масштабные реформы, направленные на либерализацию валютного рынка и интеграцию в мировую экономику. Рост внешнеторгового оборота и увеличение объёмов иностранных инвестиций усиливают подверженность экономики валютным колебаниям.

Цель работы заключается в раскрытии экономической сущности валютного риска, классификации его основных видов и определении ключевых причин возникновения. Для достижения данной цели необходимо определить содержание валютного риска, рассмотреть его место в системе финансовых рисков, изучить основные виды валютного риска и выявить причины его возникновения.

Валютный риск представляет собой вероятность финансовых потерь вследствие неблагоприятного изменения обменных курсов иностранных валют. Он возникает при осуществлении внешнеэкономической деятельности, валютных операций, международных расчётов и инвестиционных процессов.

С экономической точки зрения валютный риск является формой измеримой неопределённости, при которой невозможно точно предсказать будущий курс валюты, но возможно оценить диапазон его изменений и потенциальные последствия. Это делает валютный риск объектом анализа и управления в системе финансового менеджмента.

В структуре финансовых рисков валютный риск относится к категории рыночных рисков, поскольку его источником выступает изменение рыночной конъюнктуры. При этом его особенность заключается в комплексном воздействии на деятельность субъектов хозяйствования: изменения валютных курсов способны влиять на кредитоспособность заёмщиков, уровень ликвидности, прибыльность операций и общую финансовую устойчивость.

Значимость валютного риска существенно возросла после перехода мировой экономики к системе плавающих валютных курсов, что привело к увеличению их волатильности. В современных условиях валютные рынки характеризуются высокой динамичностью, что требует от участников активного управления рисками.

Для экономики Узбекистана валютный риск имеет особое значение, поскольку значительная часть внешнеторговых операций осуществляется в иностранной валюте, а финансовая система характеризуется определённым уровнем долларизации. Это усиливает зависимость экономических результатов от колебаний обменного курса.

В экономической теории сформировались различные подходы к классификации валютных рисков, однако наибольшее распространение получила классификация по характеру воздействия на финансовое состояние субъекта.

Транзакционный риск связан с конкретными операциями, выраженными в иностранной валюте, и возникает в период между заключением сделки и её фактическим исполнением. Изменение курса в этот промежуток времени может привести к отклонению фактического результата от ожидаемого, что делает данный вид риска наиболее очевидным и измеримым. Он характерен для экспортно-импортных операций, валютного кредитования и инвестиционной деятельности.

Трансляционный риск возникает при пересчёте финансовой отчётности зарубежных подразделений в национальную валюту. Он обусловлен изменением курсов валют и отражается в бухгалтерских показателях

компании. Несмотря на то что данный риск не всегда сопровождается реальными денежными потерями, он может существенно повлиять на финансовое положение предприятия и восприятие его инвесторами.

Экономический риск представляет собой долгосрочное воздействие изменения валютных курсов на конкурентоспособность компании, её доходы и рыночную стоимость. Даже при отсутствии прямых валютных операций колебания курса могут влиять на спрос, цены и структуру затрат, что делает данный риск стратегически значимым.

Кроме того, валютные риски могут классифицироваться по другим признакам, включая временной горизонт, степень управляемости и субъект воздействия, что позволяет более глубоко анализировать их природу и разрабатывать эффективные методы управления.

Возникновение валютного риска обусловлено воздействием множества факторов, которые можно условно разделить на макроэкономические, политико-институциональные, рыночные и микроэкономические.

К макроэкономическим причинам относятся различия в уровнях инфляции и процентных ставок между странами, состояние платёжного баланса, уровень государственного долга и бюджетного дефицита, а также темпы экономического роста. Эти факторы определяют фундаментальную динамику валютных курсов и формируют долгосрочную основу валютного риска.

Политические и институциональные факторы включают в себя уровень политической стабильности, особенности проводимой экономической политики, режим валютного регулирования и степень открытости экономики. Изменения в данных условиях могут вызывать значительные колебания валютных курсов и усиливать неопределённость для участников рынка.

Рыночные факторы связаны с особенностями функционирования финансовых рынков. К ним относятся спекулятивные операции, информационная асимметрия и высокая волатильность, обусловленная действиями участников рынка. Эти факторы усиливают краткосрочные колебания курсов и повышают уровень риска.

На микроэкономическом уровне валютный риск возникает в результате несбалансированности валютных активов и обязательств предприятия, несовпадения валют поступлений и платежей, отсутствия эффективной системы управления рисками, а также зависимости от внешнеэкономической деятельности. Все эти обстоятельства повышают уязвимость компаний к изменениям валютных курсов.

Для оценки валютного риска применяются различные количественные методы, позволяющие определить потенциальные потери и степень воздействия валютных колебаний на финансовые результаты.

Одним из наиболее распространённых методов является показатель Value at Risk, который позволяет оценить максимально возможные потери при заданной вероятности за определённый период времени. Этот метод широко используется в банковской практике и системе риск-менеджмента.

Наряду с ним применяются стресс-тестирование и сценарный анализ, позволяющие оценить поведение валютных позиций в условиях неблагоприятных изменений рыночной конъюнктуры. Анализ чувствительности используется для определения степени влияния изменения курса на финансовые показатели предприятия.

В банковской практике также применяется показатель открытой валютной позиции, который позволяет контролировать уровень валютного риска и устанавливать соответствующие ограничения.

В условиях Узбекистана валютный риск усиливается такими факторами, как высокая степень долларизации экономики, зависимость от внешней торговли и колебания внешних финансовых потоков. Это требует совершенствования механизмов управления валютными рисками и развития финансовых инструментов.

Валютный риск является важной составляющей финансовой системы и отражает влияние изменений обменных курсов на экономическую деятельность. Его значение возрастает в условиях глобализации и интеграции национальных экономик в мировую финансовую систему.

Проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что валютный риск представляет собой разновидность рыночного риска, оказывающего комплексное воздействие на финансовое состояние субъектов хозяйствования. Основными его видами являются транзакционный, трансляционный и экономический риски, каждый из которых имеет свои особенности проявления и требует специфических методов управления.

Причины возникновения валютного риска носят многоуровневый характер и включают макроэкономические, политические, рыночные и микроэкономические факторы. Их комплексное воздействие определяет динамику валютных курсов и уровень неопределённости в экономике.

В условиях Республики Узбекистан управление валютными рисками приобретает особую значимость, поскольку оно является необходимым условием обеспечения финансовой устойчивости и дальнейшего развития экономики в условиях её интеграции в мировое хозяйство.

Список использованной литературы

1. Закон Республики Узбекистан «О валютном регулировании» № ЗРУ-573 от 22.10.2019 г.

2. Центральный банк Республики Узбекистан. Годовой отчёт за 2023 год. - Ташкент, 2024.

3. Международный валютный фонд. Доклад о глобальной финансовой стабильности. - Вашингтон, 2023.

4. Банк международных расчётов. Трёхгодичный обзор центральных банков: оборот на валютном рынке. - Базель, 2022.

5. Красавина Л.Н. (ред.) Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. - М.: Юрайт, 2020. - 543 с.

4-YO‘NALISH. NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI VA ULARNING ASOSIY IQTISODIY NAZARIYALARI

NOBEL MUKOFOTI SOVRINDORLARI VA ULARNING ASOSIY IQTISODIY NAZARIYALARI

Asatullayev Xurshid Sunatullayevich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, iqtisodiyot fanlari doktori
e-mail: x.asatullayev45@gmail.com
Kunuzoqov Hayotjon Shodiboy o‘g‘li,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
E-mail: hayotjonline@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamda iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan mashhur olimlar hamda ularning iqtisodiy fan rivojiga qo‘shgan hissasi keng tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiyot yo‘nalishida Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan yetuk olimlarning ilmiy faoliyati, ularning ilgari surgan iqtisodiy nazariyalari hamda ushbu mukofot bilan taqdirlanishiga sabab bo‘lgan asosiy ilmiy ishlari mazmunini yoritishdan iboratdir. Tadqiqot davomida iqtisodiy tafakkur rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan yetti nafar mashhur Nobel mukofoti sovrindorining ilmiy qarashlari, ularning iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishdagi yondashuvlari hamda zamonaviy iqtisodiyot rivojiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilinadi.

Maqolada ushbu olimlarning iqtisodiy nazariyalari qanday tarixiy va iqtisodiy sharoitlarda shakllangani, ularning ilmiy izlanishlari natijasida iqtisodiyot fanida qanday yangi qarashlar paydo bo‘lgani hamda ushbu nazariyalar amaliyotda qanday qo‘llanilgani misollar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, Nobel mukofoti sovrindorlarining ilmiy ishlari iqtisodiy siyosatni shakllantirish, bozor mexanizmlarini takomillashtirish hamda iqtisodiy muammolarni hal etishda qanday ahamiyat kasb etgani ham alohida tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni o‘rganish, qiyosiy tahlil, tarixiy tahlil hamda nazariy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. O‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Nobel mukofoti sovrindorlarining ilmiy merosi iqtisodiyot fanining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi hamda ularning nazariyalari bugungi kunda ham iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishda, iqtisodiy siyosatni shakllantirishda va jamiyat farovonligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Nobel mukofoti; Iqtisodiy nazariya; Paul Samuelson; Milton Friedman; Gary Becker; Joseph Stiglitz; Amartya Sen; Daniel Kahneman; Esther Duflo; Monetarizm; Ijtimoiy iqtisodiyot; Informatsion asimmetriya; Farovonlik nazariyasi; Behavioral economics; Eksperimental iqtisodiyot; Bozor muvaffaqiyatsizliklari; Iqtisodiy siyosat; Rivojlanish iqtisodiyoti; Ijtimoiy adolat; Makroiqtisodiy tahlil.

Zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida Nobel mukofoti eng nufuzli va obro‘li xalqaro mukofotlardan biri hisoblanadi. Ushbu mukofot ilm-fan, adabiyot hamda tinchlik yo‘lida insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shaxslarni rag‘batlantirish maqsadida ta’sis etilgan. Nobel mukofoti shved olimi va ixtirochisi **Alfred Nobel** tomonidan asos solingan bo‘lib, u 1833-yilda Shvetsiyaning Stokgolm

shahrida tug‘ilgan. Alfred Nobel kimyo muhandisi, ixtirochi va sanoatchi sifatida tanilgan bo‘lib, u eng avvalo **dinamit ixtirosi** bilan mashhurdir. Uning ixtirolari sanoat, qurilish va konchilik sohalarida katta ahamiyat kasb etgan.

1895-yilda Alfred Nobel o‘z vasiyatnomasini yozib qoldirib, o‘z boyligining katta qismini insoniyat manfaatlari yo‘lida xizmat qilgan olim va ijodkorlarni mukofotlash uchun maxsus fond tashkil etishga bag‘ishlagan. Uning vasiyatiga ko‘ra, mukofot har yili **fizika, kimyo, tibbiyot yoki fiziologiya, adabiyot hamda tinchlik** yo‘nalishlarida insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan shaxslarga berilishi belgilangan. Birinchi Nobel mukofotlari **1901-yilda** topshirilgan va shu vaqtdan boshlab u dunyodagi eng nufuzli mukofotlardan biri sifatida tan olinib kelmoqda.

Keyinchalik iqtisodiyot fanining rivojlanishi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati ortib borishi natijasida Nobel mukofoti tizimiga yangi yo‘nalish qo‘shildi. **1968-yilda Shvetsiya Markaziy banki (Sveriges Riksbank)** Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlab iqtisodiyot sohasida ham mukofot ta’sis etdi. Ushbu mukofot rasmiy ravishda **“Alfred Nobel xotirasiga bag‘ishlangan iqtisodiyot fanlari bo‘yicha Shvetsiya banki mukofoti”** deb nomlanadi. Iqtisodiyot bo‘yicha birinchi mukofot **1969-yilda Ragnar Frisch va Jan Tinbergen** ga iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish uchun iqtisodiy modellarni ishlab chiqqanliklari uchun topshirilgan.

Bugungi kunda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti iqtisodiy nazariyalar, iqtisodiy siyosat, bozor mexanizmlari va jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy tadqiqotlar uchun beriladigan eng nufuzli mukofotlardan biri hisoblanadi. Ushbu mukofot iqtisodiyot fanining rivojlanishida muhim o‘rin tutgan ko‘plab olimlarning ilmiy faoliyatini e’tirof etib kelmoqda.

Paul Anthony Samuelson 1915-yilda AQShning Indiana shtatida tug‘ilgan. U XX asrning eng mashhur iqtisodchilaridan biri bo‘lib, iqtisodiyot fanini matematik usullar orqali tahlil qilishga katta hissa qo‘shgan. Samuelson uzoq yillar Massachusetts Institute of Technology (MIT) universitetida faoliyat yuritib, ko‘plab iqtisodchilarni tayyorlagan va zamonaviy iqtisodiyot nazariyasining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

U 1970-yilda iqtisodiyot bo‘yicha **Nobel mukofotiga** sazovor bo‘lgan. Mukofotga u iqtisodiy nazariyani ilmiy jihatdan rivojlantirganligi va iqtisodiy jarayonlarni matematik modellar yordamida tahlil qilish yo‘lini ochib bergani uchun loyiq deb topilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari zamonaviy iqtisodiyot fanining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlagan.

Samuelsonning eng mashhur ilmiy asari “Foundations of Economic Analysis” (1947) bo‘lib, unda u **iqtisodiy muvozanat, iste’molchilar xulq-atvori** va **bozor mexanizmlarini matematik tahlil qilish** usullarini ilgari surgan. Bu yondashuv iqtisodiyot fanining yanada aniq, tizimli va ilmiy asoslangan shaklga kelishiga imkon yaratdi.

Uning ishlari real hayotda ham keng qo‘llanilgan. Masalan, davlatlar iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda Samuelsonning makroiqtisodiy modellaridan foydalangan, bu modellar inflyatsiya, bandlik darajasi va iqtisodiy o‘sishni prognoz qilish imkonini berdi. Samuelsonning ilmiy ishlari davlat siyosatini shakllantirishda, iqtisodiy muvozanatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynagan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Samuelsonning ishlari iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda ishlab chiqishga yordam bergan va iqtisodiy jarayonlarni tushunishni osonlashtirgan. Uning nazariyalari bugungi kunda ham iqtisodiy tahlil va prognozlashda qo‘llaniladi, shuningdek, universitetlarda iqtisodiyot bo‘yicha darslik sifatida keng foydalaniladi.

Umuman olganda, Samuelsonning ilmiy merosi iqtisodiyot fanini yangi bosqichga olib chiqqan. U iqtisodiy nazariyani matematik asosga qo‘yib, iqtisodiy jarayonlarni chuqurroq tushunishga imkon yaratgan, bu esa zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

Milton Friedman 1912-yilda AQShning Bronx shahrida tug‘ilgan. U XX asrning eng ta’sirli iqtisodchilaridan biri bo‘lib, ayniqsa monetarizm yo‘nalishi asoschisi sifatida tanilgan. Friedman iqtisodiy nazariyani amaliyot bilan bog‘lash va bozor mexanizmlarining samaradorligini chuqur tushuntirish bilan mashhur bo‘lgan. U uzoq yillar Chicagoda faoliyat yuritib, iqtisodiy tadqiqotlarni rivojlantirishda katta hissa qo‘shgan.

1976-yilda Milton Friedman **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga iqtisodiy nazariyani rivojlantirish, ayniqsa pul massasi, inflyatsiya va bozor mexanizmlarini tahlil qilishdagi izlanishlari uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari iqtisodiy siyosat va makroiqtisodiyot nazariyasini yangi bosqichga olib chiqqanini ta’kidlagan.

Friedmanning eng mashhur nazariyasi **monetarizm** bo‘lib, unda u pul massasining iqtisodiy o‘sish va inflyatsiyaga ta’sirini matematik va empirik usullar bilan tahlil qilgan. U pul massasini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkinligini asoslab bergan. Uning nazariyasi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va fiskal siyosatni cheklashga urg‘u beradi.

Amaliy misollarda, Friedmanning ishlari ko‘plab mamlakatlarning pul siyosatiga ta’sir qilgan. Masalan, uning nazariyalari AQShda 1980-yillarda Federal Rezerv tomonidan amalga oshirilgan inflyatsiya bilan kurash strategiyasini shakllantirishda asos bo‘lgan. Shuningdek, boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda pul massasini boshqarish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda uning yondashuvi qo‘llanilgan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Friedmanning ishlari bozor iqtisodiyoti va shaxsiy erkinlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. U iqtisodiy siyosatni ilmiy asosga ko‘chirib, pul va bozor mexanizmlari orqali jamiyat resurslarini samarali taqsimlashga yordam bergan.

Natijada Milton Friedmanning ilmiy merosi zamonaviy iqtisodiy nazariya va siyosatni tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Uning nazariyalari bugungi kunda ham iqtisodiy barqarorlikni saqlash va davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Gary Stanley Becker 1930-yilda Amerikada tug‘ilgan va iqtisodiyot fanida yangi yo‘nalishlar ochgan mashhur olim sifatida tanilgan. U iqtisodiy nazariyani an’anaviy cheklovlardan chiqarib, jamiyatning turli sohalariga tatbiq qilgan. Becker iqtisodiy fikrlashni nafaqat moliya va bozor bilan, balki oilaviy munosabatlar, ta’lim, jinoyatchilik va sog‘liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalarga ham kengaytirgan.

Becker 1992-yilda **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga iqtisodiy

nazariyani ijtimoiy masalalarni tahlil qilishda qo‘llagani uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari inson xulq-atvori va iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda ochib berganini ta’kidlagan.

Uning asosiy ilmiy ishlari **ijtimoiy iqtisodiyot** sohasida bo‘lib, unda u xulq-atvorni iqtisodiy model yordamida tahlil qilgan. Masalan, Becker oilaviy qarorlar, mehnat bozoridagi tanlovlar, jinoyatchilik va qaramlik kabi ijtimoiy hodisalarni iqtisodiy manfaatlar va xarajat-foyda tahlili orqali tushuntirgan. Bu yondashuv ijtimoiy fenomenlarni matematik va iqtisodiy asosda o‘rganish imkonini berdi.

Amaliy misollarda, Beckerning yondashuvi davlat siyosatini shakllantirishda qo‘llanilgan. Masalan, jinoyatchilikni kamaytirish, ta’lim tizimini samarali boshqarish va oilaviy siyosatni ishlab chiqishda uning nazariyasi asos sifatida ishlatilgan. Bu yondashuv iqtisodiyot fanini ijtimoiy hayot bilan bog‘lashga yordam bergan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Beckerning ishlari inson xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga va ijtimoiy muammolarni samarali hal etishga xizmat qilgan. Uning nazariyalari ijtimoiy siyosatni shakllantirish va jamiyat resurslarini optimal taqsimlashda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Gary Beckerning ilmiy merosi iqtisodiy nazariyani kengaytirib, uni nafaqat bozor, balki jamiyatning barcha sohalariga tatbiq qilish imkonini yaratgan. Uning ishlari iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni yanada samarali shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Joseph Eugene Stiglitz 1943-yilda AQShda tug‘ilgan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiyot fanida o‘zining chuqur ilmiy izlanishlari bilan tanilgan. U asosan informatsion asimmetriya va bozor muvaffaqiyatsizliklari nazariyalarini rivojlantirgan iqtisodchi sifatida mashhur. Stiglitz iqtisodiy jarayonlarni tushuntirishda nazariyani amaliyot bilan bog‘lashga katta e’tibor bergan va davlat siyosati hamda iqtisodiy barqarorlikni yaxshilashga xizmat qiladigan yondashuvlarni ilgari surgan.

U 2001-yilda **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga bozor muvaffaqiyatsizliklarini tahlil qilishda informatsion asimmetriyaning iqtisodiy qarorlar va resurs taqsimotiga ta’sirini o‘rganib, iqtisodiy nazariyani yanada boyitgani uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi Stiglitzning ishlari davlat siyosatini shakllantirish va bozor mexanizmlarini to‘g‘ri tushunishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlagan.

Stiglitzning asosiy ilmiy ishlari **bozor muvaffaqiyatsizliklari** va **informatsion asimmetriya**ga bag‘ishlangan. U ko‘rsatganidek, bozor sharoitida barcha ishtirokchilar bir xil ma’lumotga ega emasligi iqtisodiy qarorlar natijasini o‘zgartiradi va resurslarni samarasiz taqsimlashga olib keladi. Uning tadqiqotlari ijtimoiy muammolar, moliya bozorlari va iqtisodiy siyosatning samaradorligini tushuntirishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

Amaliy jihatdan, Stiglitzning nazariyalari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy siyosatni shakllantirishda qo‘llanilgan. Misol uchun, u rivojlangan mamlakatlarda davlatning moliya va ijtimoiy siyosatdagi roli, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor mexanizmlarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar bergan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Stiglitzning ishlari iqtisodiy barqarorlikni saqlash, resurslarni samarali taqsimlash va ijtimoiy adolatni oshirishga xizmat qilgan. U iqtisodiy nazariyani amaliyot bilan bog‘lab, bozor va davlatning o‘zaro aloqasini chuqur tushuntirgan.

Natijada, Joseph Stiglitzning ilmiy merosi iqtisodiy nazariyani yangi bosqichga olib chiqdi, bozor muvaffaqiyatsizliklarini tushunishga yordam berdi va zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi.

Amartya Kumar Sen 1933-yilda Hindistonda tug‘ilgan va dunyoga mashhur iqtisodchi sifatida tanilgan. U asosan ijtimoiy tanlov nazariyasi, rivojlanish iqtisodiyoti va inson farovonligi bo‘yicha izlanishlari bilan mashhur. Senning ilmiy ishlari iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki insonlarning farovonligi va erkinlik darajasi bilan baholash mumkinligini ta’kidlaydi. Uning yondashuvi iqtisodiy nazariyani insonparvarlik va adolat prinsiplariga bog‘lagan.

Sen 1998-yilda **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga iqtisodiy nazariyani inson farovonligi, ijtimoiy adolat va rivojlanish masalalarini chuqur tahlil qilishda qo‘llagani uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari iqtisodiy siyosatni yanada inson markazida shakllantirishga yordam berganini ta’kidlagan.

Amartya Senning asosiy ilmiy ishlari **farovonlik nazariyasi** va **iqtisodiy rivojlanishdagi adolat**ga bag‘ishlangan. U rivojlanayotgan davlatlarda kambag‘allik, ochlik va tengsizlik muammolarini iqtisodiy modellar orqali tahlil qilgan va samarali siyosiy choralarni ishlab chiqishga asos yaratgan. Senning yondashuvi iqtisodiy resurslarni taqsimlash va ijtimoiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan.

Amaliy jihatdan, Senning ishlari xalqaro tashkilotlar va hukumatlar tomonidan rivojlanish siyosatini shakllantirishda qo‘llanilgan. Masalan, uning tavsiyalari asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirish va ta’lim hamda sog‘liqni saqlash tizimini samarali boshqarish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Amartya Senning ishlari iqtisodiy rivojlanishni inson markazida ko‘rish va resurslarni adolatli taqsimlashga yordam bergan. Uning nazariyalari rivojlanish iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosatni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi, shuningdek, iqtisodiy adolatni oshirishga hissa qo‘shadi.

Natijada, Amartya Senning ilmiy merosi nafaqat iqtisodiy nazariyani, balki ijtimoiy rivojlanish va inson farovonligini yaxshilashni ham ilgari surgan bo‘lib, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda va siyosat shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Daniel Kahneman 1934-yilda Isroilda tug‘ilgan va psixologiya hamda iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur bo‘lgan. U asosan **qaror qabul qilish psixologiyasi** va **iqtisodiy xatti-harakatlar** sohalarini rivojlantirgan. Kahneman insonlarning moliyaviy va ijtimoiy qarorlarini an’anaviy iqtisodiyot nazariyalaridagi “ratsional agent” modeli bilan izohlashning cheklovlarini ko‘rsatgan. Uning ishlari iqtisodiyotda psixologik omillarning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qilgan.

Kahneman 2002-yilda **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga

iqtisodiy nazariyaga psixologik yondashuvni qo‘shgani va qaror qabul qilish jarayonidagi xatolarni tushuntirganligi uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari moliya bozorlarida, iste’molchilar xulqida va iqtisodiy siyosatda inson psixologiyasining o‘rni muhim ekanini ko‘rsatganini ta’kidlagan.

Uning asosiy ilmiy ishlari **behavioral economics** sohasiga tegishli bo‘lib, u insonlarning risk, ehtimollik va xatti-harakatdagi kognitiv cheklovlarni o‘rganib, iqtisodiy qarorlar modelini qayta shakllantirgan. Kahnemanning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, odamlar har doim ratsional qaror qabul qilmaydi, bu esa bozorlarda va siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy jihatdan, Kahnemanning ishlari moliya bozorlarini tahlil qilish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, davlat siyosatini shakllantirish va iste’molchi xulqini prognoz qilishda qo‘llanilgan. U kognitiv cheklovlarni inobatga olib, iqtisodiy jarayonlarni yanada realistik yondashuv bilan tushuntirishga yordam bergan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Kahnemanning ishlari iqtisodiy qarorlar va siyosatni inson xatti-harakti bilan moslashtirishga xizmat qilgan. Uning nazariyalari bozor mexanizmlarini, iste’molchi va investor xatti-harakatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi, shuningdek, iqtisodiy tadqiqotlarni yanada chuqur va amaliy qilgan.

Natijada, Daniel Kahnemanning ilmiy merosi psixologiya va iqtisodiyotni birlashtirib, iqtisodiy qarorlarni tushunishga yangi yondashuv yaratgan. Uning ishlari zamonaviy behavioral economics va siyosat shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Esther Duflo 1972-yilda Fransiyada tug‘ilgan va iqtisodiyot sohasida yosh olimlar orasida eng mashhurlaridan biri hisoblanadi. U asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga qaratilgan **eksperimental iqtisodiyot** usullarini rivojlantirgan. Duflo iqtisodiy nazariyani real dunyo muammolari bilan bog‘lab, ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qilgan.

Esther Duflo 2019-yilda **Nobel mukofoti** bilan taqdirlangan. Mukofot unga kambag‘allik, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy siyosat sohalarida eksperimental tadqiqotlar olib borib, iqtisodiy nazariyani amaliyot bilan bog‘lagani uchun berilgan. Nobel qo‘mitasi uning ishlari inson farovonligini oshirish va siyosatni samarali shakllantirishga muhim hissa qo‘shganini ta’kidlagan.

Dufloning asosiy ilmiy ishlari **rivojlanish iqtisodiyoti** va eksperimental yondashuvga qaratilgan. U kichik tajribalar va eksperimentlar yordamida kambag‘allikni kamaytirish strategiyalarini sinab ko‘rgan va ularning samaradorligini baholagan. Bu yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirishga imkon yaratgan.

Amaliy jihatdan, Dufloning ishlari Hindiston, Keniya, Bangladeshi va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mikroqarz tizimini optimallashtirish bo‘yicha siyosatlarni ishlab chiqishda qo‘llanilgan. Eksperimentlar yordamida olingan natijalar siyosatchilar va xalqaro tashkilotlar tomonidan samarali qarorlar qabul qilishda asos bo‘lgan.

Jamiyatga ta’siri jihatidan, Esther Dufloning ishlari kambag‘allikni

kamaytirish, ijtimoiy adolatni oshirish va resurslarni samarali taqsimlashga yordam bergan. Uning ilmiy yondashuvi iqtisodiy tadqiqotlarni yanada amaliy va inson markazida qilish imkonini yaratgan.

Natijada, Esther Duflo zamonaviy iqtisodiyotda eksperimental yondashuvni rivojlantirib, ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda hal etishga katta hissa qo‘shgan. Uning ishlari rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosat va iqtisodiy tadqiqotlarni samarali shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan yetti nafar mashhur olimning ilmiy faoliyati, ularning asosiy nazariyalari va jamiyatga ta’siri tahlil qilindi. Paul Samuelson iqtisodiy jarayonlarni matematik modellar yordamida chuqur tahlil qilib, zamonaviy iqtisodiy nazariyaning shakllanishiga hissa qo‘shdi. Milton Friedman monetarizm nazariyasi orqali pul massasi va bozor mexanizmlarining iqtisodiy barqarorlikka ta’sirini ko‘rsatdi. Gary Becker iqtisodiy nazariyani ijtimoiy sohalarga tatbiq qilib, oilaviy qarorlar, jinoyatchilik va ta’lim tizimini iqtisodiy tahlil asosida tushuntirdi. Joseph Stiglitz bozor muvaffaqiyatsizliklari va informatsion asimmetriya orqali iqtisodiy qarorlar va resurs taqsimotini tahlil qildi. Amartya Sen inson farovonligi va rivojlanish iqtisodiyoti bo‘yicha nazariyalarni rivojlantirib, ijtimoiy adolat va erkinlikni iqtisodiy tahlil asosida o‘rganishga hissa qo‘shdi. Daniel Kahneman qaror qabul qilish psixologiyasi va behavioral economics orqali iqtisodiy xatti-harakatlarni yanada realistik tushuntirdi. Esther Duflo esa eksperimental iqtisodiyot usullarini qo‘llab, rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qilgan.

